

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKAFAKULTETI

Tasviriy san‘at va muxandislik grafikasi yo‘nalishi 415-guruh

bitiruvchisi

Barkasheva Bo‘stonoy Rustamjon qizining

“Ertaklarga illyustratsiyalar ishlashning shakl va usullari”

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY

ISHI

Ilmiy rahbar: A. Sulaymonov

Pedagogika fanlari

nomzodi, dotsent

Farg‘ona-2017

Bitiruv-malakaviy ishi Pedagogika kafedrasining 2017 yil _____gi
yigʻilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

N.O`rinova

Taqrizchilar:

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I.BOB..ERTAKLARGA ILLYUSTRATSIYALAR ISHLASHNING NAZARIY ASOSARI.....	9
1.1. Kitob illyustratsiyasi san'atining mohiyatiga mazmuni.....	9
1.2. Kitob illyustratsiyasi san'ati taraqqiyot bosqichlari.....	33
Birinchi bobbo`yichaxulosa.....	40
II.BOB. RASSOMLAR IJODIDA ERTAKLARAGA ILLYUSTRATSIYALAR ISHLASHNING TEXNOLOGIYASI VA YO`NALISHI.....	41
2.1. Ilyustratsiya san'ati o'zbek rassomlari ijodida.....	41
2.2. Metodika va Ilyustratsiya san'atining o`zaro uyg`unligi.....	53
2.3. Amaliy ish tahlili.....	61
TAVSIYALAR.....	66
UMUMIY XULOSA	67
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	69
ILOVALAR	71

Kirish

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Shaxsni hartomonlamabarkamolinson darajasida tarbiyalash murakkab jarayon bo`lib, juda qadim zamonlardan buyonushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etiladi. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasini uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyattaraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Ushbu tajribalar shaxs tarbiyasida foydalaniladi, tarbiyaning qonunatlari, prinsiplarini ijodiy qo`llashda, ilmiy bilishga doir g`oyalar, nazariyalar, qonunatlarni amalyotga tatbiqetishda muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo`zgacha ma`no kasb etishi muqarrar. Shunday ekan yosh avlod tarbiyasi mazkur talablarga muvofiq keluvchi moddiy va ma`naviy xayot uyg`unligi hozirgi zamon talablariga mos bo`lishi shart. Bu borada O`zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimovning quyidagi so`zlari o`rinlidir. “Moddiy va ma`naviy xayot tamoyillari bir birini inkor etmaydi, aksincha uo`zaro bog`lanib, bir-birini to`ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu kiladigan har bir inson va jamiyat o`z xayotini aynan anashunday dialektik va uzviy bog`liqlik asosida ko`rgan va rivojlangan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi. Ana shu xaqikatdan kelib chiqqan xolda, biz iqtisodiy o`nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish, jarayonlarining ma`naviy poklanish, ma`naviy yuksalish xarakatlari bilan tamomila uyg`un ravishda rivojlanib borishini doimo davlatimiz va jamiyatimizning etibor markaziga ko`yib kelmoqdamiz”¹.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim tug`risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”g`oyalarini amalga oshirish jarayonida komil inson va yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan biri-talabalar ongida ma`naviy va moddiy xayot uyg`unligini shakllantirishdir.

¹I.A. Karimov «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» asari 1992 yil. 78 b

Bitiruv malakviy ishining dolzarbligini tavsiflovchi yuqoridagi dalillarga yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki badiiy ta’lim tarixida o‘quvchilarning tasviriy savodxonligi, estetik didini shakllantirishda tasviriy san’at ta’limi tarkibidagi illyustrativ rasm ishlash darslari alohida ahamiyat kasb etishi bilan ham nafaqat badiiy-estetik ta’limda, balki umuman ta’limda, ayniqsa, tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Zero, bujarayon o‘quvchilarda tasviriy savodxonlik kompetentsiyalari bilan hamohang tarzda o‘quvchilar ma’naviyatini boyitish, ularda axloqiy ideallarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Zero, “Ertaklar – yaxshilikka etaklar”, degan ta’limot aynan ertaklar orqali o‘quvchilarga yaxshi bilan yomonni, yovuzlik bilan ezgulik, o‘g‘irilik bilan egrilik va hokazo qarama-qarshiliklarning mazmuni va ma’nosini anglashga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shuning uchun ham maktab tasviriy san’at ta’limi mazmuniga boshlang‘ich sinflarda ertaklarga illyustratsiya ishlash, bu turdagi darslarning keyingi bosqichlarida esa boshqa maqom va turdagi badiiy manbalarga illyustratsiya ishlashga oid maxsus soatlar ajratilgan. Bu masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda muammo sinflar kesimida didaktikaning uzluksizlik va uzviylik printsiplari asosida takomillashtirib borilib, tasviriy san’at ta’limining so‘nggibosqichi – 7-sinfning oxirgi chog‘i to‘laligicha kitobat san’ati, illyustrativ rasm ishlashga bag‘ishlanganligi ham tasviriy faoliyatning bu turi ta’lim va tarbiya jarayonining dolzarb sohalaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz mustakillikka erishdan kundan boshlab jamiyatimizning barcha soxalarida, jumladan ma’naviy-ma’rifiy xayotitda ham ulkan uzgarishlar ro‘y bermoqda. Bunday o‘zgarishlar natijasida o‘z yo‘lini to‘g‘ri belgilab, o‘z oldiga yuksak maqsadlarni qo‘ya oladigan kelajagimiz vorislari xisoblangan malakali kadrlarni tayyorlash masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bermoqda. Zero aynan manashu kadrlar yoshlarimizning ma’naviy va moddiy xayoti uyg‘unligi shakllantirish orqali ularda yuksak ma’naviy fazilatlarni, ma’naviy-moddiy qadryatlarga xurmat Vatanga muxabbat, milliy mafkurasi sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizdagi islohatlarni xal qilish omili ekanligie’tirof etiladi. Buning uchun esa ta’lim tizimining barcha bug‘inlarida

xalqimiz azaliy urf-odatlariga, tiliga, diniga, sabr-toqatlik, g'oyaviy sodiqlik, ma'naviy talabchanlik, kasbiy harakatchanlik tuyg'ularini har bir talaba ongiga singdirish talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi yana shu omil bilan belgilanadiki, bu soha o'zining qamrovi bilan faqat maktab ta'limi doirasi bilan cheklanib qolmaydi, ayniqsa, Sharq xalqlarida qadimdan tarbiyaning muhim vositalaridan biri sifatida qaralib kelingan. Bu sohaning badiiy-tasviriy ijrosining klassik namunasi sifati buyuk ajdodlarimiz asarlariga ishlangan miniatyuralarni misol qilib keltirish mumkin. Demak, ertaklarga illyustratsiya ishlash uzoq tarixga ega badiiy qadriyat sifatida zamonaviy badiiy-estetik ta'lim va tarbiyaning muhim va dolzarb mavzusi bo'lib qolaveradi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. Ertaklarga illyustratsiya ishlash mavzusidagi badiiy ta'lim mazmunining muhim komponenti sifatida qaralib kelingan. Biroq, O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida ertaklarga illyustratsiya ishlash darslari mantiqiy aloqadorlik, uzviylik printsiplariga to'laamal qilgan holda amalga oshirilmagan. 1998 yil 13 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-qaroriga asosan o'tkazilgan tajriba-sinovishlar natijalariga ko'ra 1999 yilda "Tasviriy san'at" o'quv fanining olg'a siljiganligi o'z ifodasini bermoqda. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda badiiy asarning ahamiyati, ayniqsa kattadir. Badiiy asar bolalarda Vatanga muhabbat, do'stlik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarkib toptiradi, ularni tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar bilan tanishtiradi. Badiiy adabiyot voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va axloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularni hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Maktab o'quvchilariga ertaklarga illyustratsiya ishlashni o'rgatish vositasida, ularni tasviriy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ertaklarga illyustratsiya ishlashni o'rgatishning badiiy ta'lim amaliyotidagi holatini o'rganish va taxlil qilish;

- kitob bezovchi rassomlarning hayoti va ijodini o'rganish hamda ulardan maktab tasviriy san'at ta'limi jarayonida foydalanishning mazmuni va metodikasini aniqlash;

-illyustratsiya va badiiy adabiyotning uyg'unligini tahlil qilish;

-maktab ta'asviriy san'at ta'limida illyustrativ rasm ishlash darslari mazmuni va metodikasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning obykti:Maktab tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni illyustrativ rasm ishlashga o'rgatish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti:Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni illyustrativ rasm ishlashga o'rgatishning mazmuni, metodikasi, shakl va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishningilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati: Shundan iboratki, globallashuv, integratsiyalashuv jarayonlariga hamohang tarzda ma'lumot olishning zamonaviy usullari, axborot-kommunikatsiya vositalarining tarmoqlari va kanallari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda o'quvchilarni kitob va kitobot san'atiga qiziqtirish bu jarayonning ilmiy asoslangan mazmuni va metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu jarayonda, shubhasiz, pedagogika va psixologiya sohasidagi nazariyalarga asoslangan holda maktab o'quvchilari bilan ertaklarga illyustratsiya ishlash darslarini tashkil etishning muayyan xususiyatlariga aniqlik kiritishda ayrim nazariy ma'lumotlarga asoslanildi. Shuningdek, kitob illyustratsiyasining tarixi, illyustratsiyachi rassomlarning ijodidan tasviriy san'at darslarida foydalanishning nazariy asoslarining ayrim tarkibiy komponentlari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati sifatida:

- maktab ta'limining amaldagi tasviriy san'at ta'limining mazmunida ertaklarga illyustratsiya ishlash darslarining salmog'i, mazmuni va qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar tahlil qilinganligini;

- o'quvchilarga illyustrativ rasm ishlashni o'rgatishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini anqlagan holda mazkur yo'nalishdagi ta'limiy jarayonni takomillashtirishga yo'naltirilgan amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligini;

illyustratsiya ishlovchi rassomlarning hayoti va ijodiga oid materiallardan maktab tasviriy san'at darslarida foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar taqdim etilganligini e'tirof etish mumkin

Bitiruv malakaviy ishning metodologiyasi sifatida, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"; maktab ta'limini rivojlantirishga oid hukumat qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim va tarbiyaga oid qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining ta'limni rivojlantirishga oid qaror va buyruqlari; badiiy-estetik ta'limni barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni haqidagi tarixiy, falsafiy, pedagogik vapsixologik ta'limotlarga asoslanadi.

Bitiruv malaka ishning metodlari: Bitiruv malakaviy ishida uning mavzusiga oid manbalarni o'rganish va tahlil qilish; tasviriy san'at standarti, o'quv dasturi va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmunini tahlil qilish; o'quvchilarning tasviriy faoliyat natijalarini kuzatish va natijalarni baholash; tizimli yondashuv, tarixiylik, qiyoslash va umumlashtirish kabi metodlardan foydalaniladi

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi hajmi: Kirish, 2 bob, 4 paragraf, umumiy hulosasi va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar, ilovadan iborat.

I.BOB. ERTAKLARGA ILLYUSTRATSIYALAR ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI


1.1. Kitob illyustratsiyasi san'atining mohiyati va mazmuni

Kitobat san'ati (arab, kataba -yozish, yozmoq so'zidan) — qo'lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash. Markaziy Osiyoda (jumladan, O'rta Osiyoda) qo'lyozma kitoblarni bezash juda qadimdan mahalliy madaniyat taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq holda shakllangan. Eng qadimgi kitoblardan "Avesto" qo'lyozmalari, sug'd tilida yaratilgan "Vessantaraka jataka" asari (uning varaqlari turli mamlakatlar -Rossiya, Fransiya, Angliyada saqlanadi); sopol yuzasidagi bitiklar, charm o'ramlari, metall buyumlardagi yozuvlar, qog'oz varaq taxlamalari (taxtachalar orasiga olib tizimchalar bilan bog'langan turi) va boshqalar O'rta asrlarda umum musulmon yoki arab tilidagi qo'lyozma an'alariga asoslangan kitobat sanati to'liq shakllandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi. Kitobat san'atihunarmandlar-qog'ozrez, xattot, lavvoh, mo'zahhib, musavvir, sahhof (muqovasoz) va boshqalardan iborat guruh (jamo'a) tomonidan bajariladigan jarayon bo'lib, O'rta va Yaqin Sharq islom tasarrufidagi davlatlarda bir xil usulda amalga oshirilgan. Qo'lyozma kitob uchun yaxshi, sifatli qogoz tanlangan, xattot matnni qog'ozga yozishda maxsus qog'ozkarton (mistar) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan qog'ozga tushirib olgandan so'ng xat yozilgan. Matnni joylashtirilishi xattotning mahoratiga bog'liq bo'lgan. Bitilgan matnni lavvoh hoshiya qog'ozga yelimlagan. Ustidan jadvalkash ayni yopishtirilgan joydan turli ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan. So'ngra mo'zahhib suyultirilgan oltin va boshqa turli ranglar yordamida qo'lyozmani ziynatlagan va "shams", "lavha", "sarlavha", "zarvaraq" "xotima" naqshlar bilan bezagan. Bo'sh qoldirilgan joylarga musavvir rasm (miniatyura) ishlagan. Musavvir, naqqosh nafis qamish qalam bilan rasmning asosiy tarhini, shakllar chizig'ini, zaminni, detallarni chizib, so'ng turli rangda (oltin, kumush ishlatgan holda) bo'yagan. Muqovachi qo'lyozmani karton yoki charmdan ishlangan (naqsh zarb qilingan, bo'yoqlar, oltin bilan bo'yalgan) muqovaga biriktirgan, muqova qopqog'i yog'ochdan ba'zan

kumushdan quyib tayyorlangan hamda bosma, o'yma va qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan.

Kitob-insoniyat yaratgan eng buyuk ixtirolardan biri. U tufayli taraqqiyot bir necha marta tezlashdi. Inson zakovatining, tafakkurining noyob durdonalari keyingi avlodlarga etib bordi. Tarixning har bir daqiqasi bir umrga kitoblarga muhrlandi. Bugungi avlodlar kitob tufayli o'zlarining eng qadimgi ajdodlarining turmush-tarzi, hayotiy kechinmalari, orzu-umidlari haqida tasavvurga egadirlar.

Bu qadim zardushtiylarning "Avesto"si, bu hind xalqining avsonaviy "Maxobxorata"si, bu "Ramayana" va "Pangatantra", bu "Qobusnoma" va "hadislar". Kitoblar tufayli ajdodlar hayotiy tajribasi avlodlarga saboq, Ajdodlar bosib o'tgan tarix yo'li ularga o'rnak, xulosa chiqarish imkoni. Kitob san'ati deganda qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish va u bilan bog'liq bo'lgan hattotlik, musavvirlik, lavvohlik (Lavha chizish) va sahhoflik (muqovasozlik) san'ati tushunilgan. Taxminan to'rt yarim ming yilliklar mobaynida qo'lyozma kitoblar mavjud bo'lib, insoniyat bosma nashr nima ekanligini bilmagan bo'lsa-da kaligrafiya, miniatyura san'ati rivojlangan.



Bir necha kasb-hunar egalarining uzoq va mashaqqatli mehnati bilan bunyodgakegan nafis kitob juda oz nusxada bo'lib, u nihoyatda qimmat bo'lardi. Bunday kitoblar ko'pincha podshoh, ruhoniy, amir va davlatmand amaldor kishilarning buyurtmasi bilan ishlanar va maxsus kutubxonalarda, hatto xazinalarda qimmatbaho mulk sifatida saqlanar edi. Ahmad Arg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Sino va boshqalarning asarlari faqat mazmun jihatidan emas, kitob san'ati bilan ham nodir hisoblanadi. Ularning ko'plari jahondagi yirik kutubxonalarda qimmatli yodgorliklar sifatida saqlanadi. Kitob san'ati – Sharq madaniyatining eng qadimiy va nodirturlaridan biri. Kitob Sharqda qadimdan izzat-ikromdabo'lgan. Unda Vatan va

millat tarixi, ilm-fan sirlari, kishilarning falsafiy va estetik qarashlari, turmush tarsi, orzu – umidlari o'z aksini topgan. Sharq kitoblarini sharqona donolik, ma'naviy barkamollik timsolisifatida e'tirof etadilar. Sharq kitobat san'atining yana bir qimmatli jixati shundaki, unda hattot, naqqosh, rassom muqovasoz, zarhal harf yozuvchi (chizuvchi) mutaxassislarning yuksak badiiy mahoratining sintezi tufayli kitoblar yuksak badiiy saviyadagi asardarajasiga yetkazilgan. Shu bois ham jahonning eng yirik muzey va kutubxonalari (Sankt – Peterburgdagi Ermitaj, Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyi, Londondagi Britaniya muzeyi, Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasi va boshqalar)da Sharq kitobat san'atining nodir namunalari saqlanadi. Bugungi kunga kelib kitoblarning barchasi deyarli bir xil shaklga ega. Biroq qadimda ularning shakli turli-tuman bo'lgan. Ularasrlarosh shakllanib, sayqal topib kelgan. Bu jarayonda kitobat san'atining boshqa sohalari bilan birqatorda rassomning mehnati katta bo'lgan. Kitobda qo'llaniladigan harf turlari, uning nisbatlari, ko'rinishlari, matn teriladigan yuzaning kompozitsiyasi va boshqa jihatlar qachonlardir rassom tomonidan ishlab chiqilgan. Shuning uchun kitob bezovchi rassomni sozandaga o'xshatishadi. Sozanda bastakorning g'oyalarini mahorat bilan ijro etgani kabi rassom muallifining fikrlarini o'quvchiga estetik zavq baxsh etuvchi shaklda yetkazishda hal qiluvchi figuradir.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy kitoblardan biri – Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” eramizdan oldingi VII asrning oxiri – VI asrning birinchi yarmida yaratilgan bo'lib, u 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan 21 kitobdan iborat bo'lgan. Hozirgacha uning 5ta kitobi saqlanib qolgan.

O'zbek xalqining dunyoga mashxur san'ati turlaridan biri kitobat san'ati ekanligi uning boy tarixidan dalolatberadi. Endilikda Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarovlar tomonidan badiiy sayqal berilgan kitoblar nodir san'at asari darajasid amillionlab insonlarning ma'anaviyatini boyitishga xizmatqilmoqda.

O'zbekiston kitobat san'ati namunalari endilikda eng zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan bosmaxonalarda nashr etilmoqda.

Grafika tasviriy san'atning eng ommalashgan turi, bu grafika san'atining o'ziga xos murakkabliklaridir. Bir qarashda juda oddiy tuyulgan bu san'at turi aslida undagi shartliliklar tufayli murakkabdir. Unda bir rang va uning tushlari, borliqdagi voqea va hodisalar tasvirlanadi.

Grafika san'atining dastgoh grafikasi, kitob, gazeta-jurnal grafikasi, amaliy grafika va plakatkabi turlari mavjud, shular ichida insonlar hayotiga eng chuqur kirib borgan kitob grafikasi san'atidir.

Kitob grafikasi – kitoblarga badiiy bezak berish san'atidir. Kitoblarning mazmun va mohiyatiga ko'ra bezatiladi. Shu boisdarsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ilmiy – ommabop kitoblar, lug'atlar va ensiklopediyalar, badiiy adabiyotlarga ishlangan bezaklar bir-biridan farq qiladi. Kitob grafikasi san'atining imkoniyatlari adabiy asarlariga badiiy bezak berishda to'la-to'kis namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek kitob grafikasi san'ati XIX asrning oxirlarida shakllana boshlagan. O'rta Osiyo bir paytlar mashhur hattotlar, naqqoshlar, musavvirlar, muqovasozlarning kitob ziynatlashda ulkan maktabi bo'lgan. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga kelib kitob ishlab chiqarish san'at sohasidan industriyaga aylanib. Yevropadan avvalgi O'rta Sharq mamlakatlariga, XIX asrning 60- yillarida Turkistonga Yevropacha kitob nashr qilish texnikalarining kirib kelishi, shuningdek, yevropalik kitob bezovchi rassomlarning bu yerda qo'nim topishi asrlar davomida shakllangan an'analarning inqirozga uchrashiga olib keldi. Kitoblarni texnika yordamida nashr etishni yo'lga qo'yilishi mahsulotlarning badiiy darajasi emas, balki soniga e'tibor berishni taqazo etdi. Toshkent, Xiva, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Marg'ilonda litografiya usulida kitob chiqarish uskunalari ishga tushirilishi Turkiston va Yevropada nashr etilayotgan kitoblarni amalda bir xil bo'lishga olib keldi. Shu davrga kelib jamiyatning kitobga

bo'lgan ehtiyojni to'la-to'kis qondirish uchun uni idustirlashtirish tabiiy holga aylandi.

Turkistonning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi (XIII asrning birinchi yarmi) butunmadaniy hayotda bo'lgani kabi, kitob yaratish va tarqatish ishlarini ham anchasustlashtirdi. Temuriylar hukmronligi davrida u yana yuksaklikka ko'tarildi. Qog'ozning ko'payishi kitob bezashga alohida ahamiyat berildi. Uning sahifalariga turli miniatyuralar, hoshiyalariga bezaklar ishlana boshladi. Nafis kitob va hattotlik san'ati XIV-XV asrda yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Temuriylar davri qo'lyozma san'ati.

Amir Temur davlatining ma'naviy hayotida qo'lyozma kitob alohida o'rin tutib, bu yerda yashovchixalqlar uni hamma davrlarda ham yuksak qadrlashgan.

Papirus, pergament va qog'oz qo'lyozma kitob uchun asosiy xom ashyo hisoblangan. Xususan, qo'y, echki, buzoq va ohu terisidan tayyorlangan pergament qadim zamondan buyon keng qo'llanib kelingan.

Nisbatan arzon, lekin yuqori sifatli yozuv qog'ozining ko'plab ishlab chiqarilishi fan, adabiyot va san'atning rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Shu tufayli turli shaharlarda qo'lyozma kitoblar ko'plab tayyorlana boshlandi.

Samarqand qog'ozi tayyorlash usuli ko'p asrlar davomida deyarli o'zgarishsiz saqlanib keldi. Amir Temur saroyida Temuriylar davrining talaygina ma'lum va mashhur ko'pgina kitoblari shu qog'ozda bitilgan.

Biz yoshlar Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining vorislari bo'lamiz. Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo xalqlari qo'lyozma san'atini rivojlantirishda ajdodlar tajribasidan foydalanishgan, uni boyitishgan.

Qo'lyozma kitob hattot, naqqosh, muzahhib, rassom va sahhof singari qator ustalar ijodining uyg'unligidir. Qo'lyozma kitobining badiiy bezaklari ko'pincha sodda, kamtarona bo'lgan. Ko'pincha kitobda ko'k, qizil, yashil, tilla rang ko'proq ishlatilardi.

Unvon (titul) cho‘ziq, yarim yumaloq, to‘g‘ri burchakli qubba shaklida bajarilardi. Gohidau yopiq varaqday qilib ishlanar yoki ikki marta takrorlanardi. Odatda, unvonga yozuv yozilmasdi, ba’zida unga asar nomi bitilardi, xolos:

Maxsus buyurtmaga ko‘ra bajarilgan hashamatli bezatilgan kitobning birinchi varag‘iga miniatyura naqsh ishlanardi. Quroni karim qo‘lyozmasi ayniqsa ko‘rkam bezatilardi.

Temuriylar davribadiiy qo‘lyozmalari orasida miniatyura bilan bezatilgan kitobdan tashqari, hattotlar yaratgan va naqsh bilan bezatilgan kitoblar ham ko‘p edi.

Badiiy qo‘lyozma, Amir Temur davri san’atining boshqa turlari kabi, o‘tgan asrlar ustalarining eng yaxshi an’alarini o‘zlashtirish asosida rivojlandi.

Samarqand, Buxoro, Xiro, Tabriz shaharlarining ommaviy va xususiy kutubxonalarida XIV-XV asrda qayta ko‘chirilgan, nafis bezaklar va rasmlar ishlangan ko‘plab qo‘lyozmalar nusxasi saqlanib qolgan.

Qo‘lyozma bezash g‘oyasi kitob san’atining barcha sohalari ustalarining yaqin ijodiy hamkorligida rassom ustaxonasida paydo bo‘lardi. Har bir badiiy qo‘lyozmani yaratishda bezak uslubi, turi va hatto hajmi, dastavval, uning mazmuni hamda maqsadiga qarab belgilangan.

“Hattotlar sultoni” Sulton Ali Mashhadiy miniatyura san’ati bo‘yicha Xiro maktabining asoschisi Kamoliddin Behzod va kitob bezash san’atining mashhur ustasi naqqosh Mavlono Yoriy Muzahhib bezakli kitobining shohona namunalarini yaratgan yuzlab ustalarning murabbiylari edi. Har bir bezakli qo‘lyozma betakror san’at asariga aylanib ketgan.

Alisher Navoiy “Hamsa”sining 896G’1492-93 yili ko‘chirilgan va hozir Sankt-Peterburgda saqlanayotgan nusxasi miniatyurasiz, ammo bezakli qo‘lyozmaning noyob namunasi hisoblanadi. “Kotiblar qiblasi” mavlono Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan, Yoriy Muzahhib va “Zamona gavhari” sahhof Sulton Ali Marvoziy kabi benazir ustalar qo‘lidan o‘tgan bu nusxada “(Ollahning) quli

Sulton Ali 898 sana oylarida bitdi” degan yozuv bor. Qo‘lyozma varaqlari 325 ta, o‘lchami 24,5x17 sm.dan iborat. “Hamsa”ning besh dostonidan har biri uchun ikkitadan va qo‘sh sahifali frontispis yagona usulda tayyorlangan. Har bir doston boshida birinchi frontispis asar nomini o‘z ichiga olgan holda shmutstitul vazifasini o‘tar, ikkinchisi esa doston boshlanishi uchun bezak edi. Qo‘lyozma avvalida Navoiyning butun “Hamsa”si uchun muallif nomi ko‘rsatilgan bitta qo‘sh sahifali frontispis berilgan. Ya’ni, bu nusxa qo‘lyozmaning 22 sahifasini egallagan o‘n bitta ajoyib frontispis bilan bezatilgan.

Naqshlarning umumiy usuli, yagona uyg‘unligi va tuzilishi, o‘ziga xos xususiyatlari va ohanglari saqlanib qolgani holda har bir sahifa naqshlari bezakchi-muzahhibning bir-birini aslo takrorlamaydigan alohida-alohida mustaqil asariga aylanib ketgan. Naqqosh Yoriy Muzahhib qo‘lyozma bezaginingo‘ziga xos unsuri bo‘lgan naqsh parchalarini xilma-xil birikuv holida har bir dostonning varaqlari orasida berib boradi. San’atkor bu bilan qo‘lyozmaning boshidan oxirigacha badiiy bezak yaxlit bo‘lishiga erishgan. Butun qo‘lyozmaning bezagini yakunlovchi naqshinkor va boy xotima bezakning uchinchi asosiy qismini tashkil etadi.

Qadimgi qo‘lyozmalarning muqovasi kamdan-kam hollardagina saqlanib qolgan.“Hamsa”ning bu qo‘lyozmasi bizga Mavlono Sulton Ali Marvoziy tayyorlagan dastlabki muqovada yetib kelgan.Muqova qadimiyligiga qaramay, betakror chiroyi bilan hanuz hayratga soladi. Muqovaning charm qoplanmasiga va tasmalargaqizil oltindan nozik bosma naqsh tushirilgan va oltin tovlanishidagi nafis uyg‘unlik, Temuriylar davridagi badiiy sahhoflikning mumtoz namunasi hisoblanadi.

Shunday qilib, “Hamsa”ning Sankt-Peterburg nushasi, miniatyuralar yo‘qligiga qaramay, Temuriylar davri bezakli qo‘lyozmalarining, shohona namunasi XV asrning ikkinchi yarmidagi Xirof maktabining o‘ziga xos yangi usulini aks ettirgan, deb bilish mumkin.

O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmgohining qo‘lyozmalar fondida Alisher Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan va sanalgan uchta devoni hamda Navoiy “Hamsa”sining shoir kutubxonasi uchun ko‘chirilgan eng qadimiy nusxasi saqlanadi. Bu qo‘lyozmalarda XV asrning so‘nggi choragidagi turli musavvirlar mo‘yqalamiga mansub miniatyuralar bo‘lmagani holda, Xirot bezakli qo‘lyozmalarining ajoyib yirik nastaliq xatida ko‘chirgan uchta devonning hammasi o‘ziga xos badiiy yechimga ega. Biroq avvalgi qo‘lyozmalardan farqli o‘laroq., ular faqat bittadan yoyma frontispisga ega, uning naqshlarida esa oltin suvi niliy, noronjiy va lojuvard ranglar bilan nafis uyg‘unlik hosil qilib, osuda va hayratomuz go‘zallik kasb etgan. Qo‘lyozmaning rangli hoshiyalari islamiy va girih naqshlar bilan bezatilgan.

Navoiyning Abdul Jamil kotib ko‘chirgan “Hamsa”si badiiy bezaklari bo‘yicha yuqorida ko‘rsatilgan qo‘lyozmalardan keskin farqlanadi. U Navoiyning beshta dostonini o‘z ichiga olgan. Varaqlar soni 325, o‘lchami 19x27,5 sm. Qo‘lyozma boshdan – oyoq qoramtir –jigarrang, qahvasimon rangga bo‘yalgan, Xirot shoyi qog‘oziga mayda nasta’liq xatida qora siyohda yozilgan. Dostonlarning barcha boblaridagi sarlavhalar zarhal va qizil siyohda yozilgan. Qo‘lyozma matni to‘rtta ustunga joylashtirilgan, zarhal va qora hoshiyaga olingan. Har bir dostonning boshlanishida jigarrang fondga ko‘k siyoh va zarhal bilan chizilgan beshta mo‘jazlavh bor xolos. Sovuqranglar bezakka ixchamlik va sipolik baxsh etgan.

Sulton Husayn Boyqaroning saroy kutubxonasida buyuk musavvirlardan Kamolliddin Behzod, Mirak naqqosh, Qosim Ali Mahmud Muzahhib, Shoh Muzaffar, Sulton Muhammad, Do‘st Muhammad, Abdurazzoq, hattotlardan Sultonali Mashhadiy, Muhammad ibn Nur, Darvesh Muhammad Taqiy, Muhammad Xandon, Muhammad ibn Asxar, Sherali va boshqalar faoliyat yuritgan. Eng ajoyib bezakli qo‘lyozmalar avvalambor “Husayniy” taxallusi bilan g‘azal bitgan Sulton Husaynning o‘zi uchun ishlangani aniq. Alisher Navoiy qariyb

barcha asarlarida shoir va go‘zallik shaydosi sifatida Sulton Husaynga yuksak baho beradi.

Temur va Ulug‘bek davri, XV asrning ikkinchi yarmidagi bezakli qo‘lyozmalarning bunday namunalari Samarqand, Buxoro, Termiz, Sheroz, Mashxad kabi shaharlarda ham tayyorlangan.

Umuman Temuriylar davri qo‘lyozmalarini bezak xususiyatlari bo‘yicha asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1. Miniaturalar bilan bezatilgan qo‘lyozmalar.
2. Miniaturalarsiz, asosan naqshlar bilan bezatilgan qo‘lyozmalar.
3. Qiymati hattotlar san‘ati bilan belgilanadigan qo‘lyozmalar.

Bezakli qo‘lyozmalar ijodkorlarining mukammal san‘at darajasini egallagani, ular o‘rtasidagi mehnat taqsimoti Temuriylar davrida kitobat san‘atining yuksak darajada gullab yashnasiga olib keldi. O‘sha davrdagi bezakli qo‘lyozmalar mumtoz namuna sifatida o‘zida quyidagi unsurlarni aks ettirar edi:

1. Husnixat-bezakli qo‘lyozmaning asosiy xususiyati bo‘lib, asosiy matn uchun uning mazmuni va vazifasidan kelib chiqqan holda nasta‘liq yoki nasx, titul va mayda sarlavhalar uchun sulx riqa, hatti devoniy, hatti kufiy va h.k tanlangan.

2. Kitob matnini joylashtirish badiiy bezakning muhim omili hisoblangan. Asosiy matn sahifa markazida hoshiyaga olingan holda, ikki yo to‘rt ustunda berilgan. Ayrim asarlarda mohirlik bilan hoshiyaga ham matn yozilgan. Mo‘jaz matn- sarlavha, unvon, xotima, kolofonlar xilma-xil tuzilishda naqshga o‘xshatib bezak belgisi sifatida berilgan.

3. Matn naqshlanishi asosan unvonlar va sarlavhalarda zarxal va rangli chiziqlar bilan o‘rab olingan harflar shaklida keladi. Alohida harflar yoki harflar guruhi xilma-xil shakldagi yarim aylana chiziqlar bilan o‘rab olingan gilamdagi hashamatli naqshlarni eslatadi. Ayrim qo‘lyozmalarda butun sahifa bo‘yicha satrlar oralig‘ini shu xil naqshlar to‘ldirgan.

4. Bezakli, naqshlangan forzats kamdan kam hollarda temuriylar davrining eng noyob qo‘lyozmalarida kitob boshi va oxirida uchraydi. Goho forzats o‘rnida ikki sahifada asar mazmuni bilan bog‘liq miniatyuralar beriladi.

5. Naqshinkor titul-unvon bezakli qo‘lyozmaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hirot, Tabriz va Sheroz maktablari titul-unvonlarning ikki xil an‘anaviy shaklini-shams deb atalgan yumaloq shakldagi titulni va frontispis ko‘rinishida ikki sahifada berilgan naqshinkor titulni ishlab chiqishgan. Ularda muallif va asar nomlari ko‘rsatiladi.

6. Frontispis-bezakning asosiy unsurlaridan biri sifatida bezakli qo‘lyozma tarkibiga kiradi. Frontispis markazida, odatda asarning boshlang‘ich qismidan kichikroq parcha berilib, atrofi naqshlar bilan chiroyli qilib o‘rab olinadi. Frontispis naqshlaru gullardagi simmetriyaga qat‘iy rioya qilingan holda tutash sahifalarga beriladi. Ba‘zan qo‘lyozmaning bitta sahifasiga berilgan frontispislar ham uchrab turadi.

7. Lavha-frontispisga nisbatan kichikroq o‘lchamda, lekin ancha ko‘proq uchraydigan bezak. Sharq kitobat san‘atining badiiy an‘analariga ko‘ra, u sahifa yuqori qismining uchdan yoki to‘rttdan bir qismini egallaydi. Lavha barcha turlardagi qo‘lyozmalar, goho boblar boshidan beriladi.

8. Temuriylar davri qo‘lyozmalari sahifalarini badiiy jihatdan bezash san‘atkorlar uchun muhim va murakkab vazifa bo‘lgan. Uni hal qilishda qariyb barcha ustalar ishtirok etgan: qog‘oz ishlari ustasi (qog‘ozlar) zaruriy sifatga ega qog‘ozni tanlagan, u ba‘zan matn va hoshiya uchun alohida bo‘lgan. Ayrim hollarda bo‘lg‘usi qo‘lyozma sahifasiga matn yozilishi oldidan oltin suvi purkalgan. Keyin har bir sahifaga zarhal va rango-rang bo‘yoqlar bilan hoshiya lar chizilgan.

9. Bezakli qo‘lyozma hoshiyasiing bezatilishi ham temuriylar davri kitobat san‘atining rivojlangan tarmoqlaridan biri edi. Qo‘lyozma hoshiyasi kitobning jamiki badiiy belgilariga muvofiq holda bezatilgan. Qo‘lyozmani bezatish

hususiyatiga bog‘liq ravishda hoshiya oltin va kumush hallar bilan qoplangan yoki islamiy, o‘simliksimon va hayvon shakllaridan iborat naqshlar bilan bezatilgan. Hoshiyasida voqeaband miniatyuralar, hatto ayrim shaxslarning tasviri bor qo‘lyozmalar ham uchraydi.

10. Bezakli muqova kitobat san‘atining o‘ziga xos shunday bir turiki, temuriylar davri bezakli qo‘lyozmalarining namunalarini usiz yaratish mutlaqo mumkin emasdi. Muqova charm qoplamali bo‘lib, ustiga maxsus ishlab chiqilgan naqshlar oltin suvi bilan bosilgan, kartondan tayyorlangan turlariga naqshlar tushirilgan.

XV asr kitob naqqoshligi o‘zining nozik gullari, cheksiz davom etuvchi naqshlari, yorqin ranglarining nafis uyg‘unligida avvalgi asrlarning eng yaxshi an‘analarini rivojlantirish orqali san‘atning yuksak darajada taraqqiy etgan janriga aylandi, Teran xalqchillikni va badiiy kamolot cho‘qqisini aks ettirdi.

Bezakli qo‘lyozmalarining temuriylar davrida vujudga kelgan yangi uslubidagi eng yaxshi an‘analar Tabriz, Xirotda, Isfaxon, Buxoro va Samarqandda kitobot san‘atining kelgusi taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston hududi – qadimgi Baqtriya, Xorazm, Farg‘onada o‘ziga xos badiiy maktablar ravnaq topgan. Arxeologlar tomonidan topilgan antik, o‘rta asrlardan avvalgi davrlarga oid tasviriy bezak san‘ati asarlari bugungi kunda butun dunyoga mashhur. Ular O‘rta Osiyoning iste‘dodli, mohir ustalari, rassomlari tomonidan yaratilgan. Tabiiyki, bu hududdagi mahobatli rangtasvir asarlari (Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqalar), terrakota haykalchalari, suyak o‘ymakorligi, metallarga ishlangan badiiy shakllar va boshqa san‘at turlarini ustoz-shogird an‘analari rivojisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘rta Osiyoda olis o‘tmish zamonlarda yaratilgan tasviriy va amaliy bezak san‘ati asarlari bu yerda qadimdan vorisiylik an‘anasi mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Ayni paytgacha ham O‘zbekistonda kasb-hunar o‘rganishning an‘anaviy “ustoz-shogirdlik” tizimi saqlanib qolgan. Har bir usta o‘z kasbi sirlarini

shogirdlariga o'rgatishga intiladi. Mohir san'atkor u boshlagan ishni shogirdlari davom ettirishini istaydi. Mavjud badiiy maktablar ham, usta an'anaviy amaliy-bezak san'ati yoki tasviriy san'at bilan shug'ullanadimi, bundan qat'iy nazar, o'ziga xos badiiy ta'lim tizimi yuzaga kelishi uchun asos yaratadi. Amaliy san'atining ma'lum bir sohasiga aylangan nafis kitob san'atirivojlandi.

Bosmaxona va kitob nashr etish hali vujudga kelmagan o'sha zamonda kitob yaratish va uning nusxalarini qo'lyozma shaklida ko'paytirish nihoyatda ko'p mehnat va malaka talab qilgan. Ayniqsa, nafis kitob yaratish o'ta murakkab va juda mashaqqatli bir jarayon bo'lib, unda qog'ozchi, kitob varaqlariga jilo beruvchi (lavvoh) saxhof (sahifalovchi muqovasoz) kabi bir necha xil mutaxassis-larning mehnati va malakasi bilan bog'liq bo'lgan. Har bir kitob qog'ozidan tortib muqovasigacha, siyohidan to bo'yoqlariyu zarhaligacha ma'lum me'yordagi modda, reja va qoida asosida tayyorlanardi, hatto kitobdan hushbo'y hid anqib turishi uchun ba'zan siyohga gulob yoki anbar qo'shildirdi. Hattotlik va kitob sahifalarini qaytarilmas naqsh va miniatyuralar bilan bezash maxsus kasb, o'ta nozik va o'ziga xos san'at hisoblanardi. Rassom va hattot mukammal savodli, badiiy didi bilan, ijodkor kishi bo'lishi lozim bo'lgan. Har bir ijodkorning o'z usuli va uslubi bo'lib, ular ustozdan shogirdga o'tar, an'analar davom ettiriladi va takomillashtirib borilardi.

Kitob sahifalarining badiiy bezagi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, kitob birtomondan adabiy asar nio'qish uchun texnik moslamabo'lsa, boshqatomondan u adabiy asarning makon (fazo) ga nisbatan tasviridir. Bunday kitobni atxitekturaga o'xshatadilar, bino ham yashash uchun, ham amalda foydalanish uchun quriladi, bino qurish uchun ham san'atkor darajasidagi mutaxassis zarur, uning ko'rinishi, tuzilishi, bezatilishi, did bilan shakl berilishi ham san'at. Shu jihatdan olib qaraganda, kitob yaratish ham, bino yaratish ham san'at hisoblanadi, to'g'rirog'i kitobda ham, arxitekturada ham funktsiya halaqit bermaydi, aksincha yordam beradi, makonga oid plastik bezak uchun rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Arxitektura va kitob san'ati o'rtasidagi o'xshashlikni biz shunda ko'rishimiz mumkinki, arxitektura yodgorligini ham, kitobni ham ma'lum vaqt mobaynida qabul qilamiz. Adabiyasarniifodalovchimufassalasar hisoblanmish kitob tabiiyki, o'zining elementlarini biror vaqt davomida namoyon qiladi, bizning xarakterimizni yuzaga keltirib, bizni kitobning mazmuniga mos (muvofiqlashgan holda) lahzadan lahzaga etaklaydi.

Ammo kitob tasvirining vazifasini faqat harakatni yuzaga keltirish deb hisoblasak, unda o'zing uchun bir qator kitobni tasavvur qilish mumkin bo'lar edi, uzun qatorlarning o'rami kabi, biz uni o'rardik va shu tariqa o'qir edik. Bu juda bo'lmaganda kinoningyordamida mexanizatsiyalashtirilganshaklda bo'lishi mumkin edi.

Ammobundaybir qator o'ramakitobni o'qib, hudditor yo'lakchadanuzoq ketishkabi,bizuchunhayolan orqaga qaytish ham oson bo'lar edi. Kitobning oldidagi vazifalari nafaqat harakatni uyg'otish, balki bizni olg'a va yana olg'a otlantirish, harakatni tashkil qilishdir. Bunda kitob beti (uning varag'i) katta rol o'ynaydi.

Ko'pincha bizning kitoblarimizning formatida gorizontaldan ko'ra vertikal ko'proqdir.Gorizental kam foydalaniladi, vertikal sahifaesa gorizental qatorlardan iborat.Vertikal qurilgan ustunlardan iborat, shu bilan bizga xuddi vertikal o'zakka birlashgan qatorlarning butun o'ramini taqdim qilgandek; biz uni o'rashimiz, ya'ni o'qishimiz mumkin, ammo birdaniga butun matnning boshini ham oxirini ham ko'rishimiz mumkin, butun sahifani birvarakay qizil qatorlarni barcha bezak (naqshlari) bilan ko'ramiz.

O'ng va chap tutash ikki ichki varaqlar ayniqsa, diqqatni tortadi, bu erda katta mazmunli va matnli butun bo'lim ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bir-birining o'rnini almashtiruvchi varaqlar kitobni tashkil qiladi.Kitobharakatnitashkileta turib, xotirani ham charxlaydi, sahifalarni bir-biriga bog'laydi, shu bilan boshlanishi haqida esga soladi.Kitob harakatni tashkil eta

turib, xotirani ham charxlaydi, sahifalarni bir-biriga bog'laydi, shu bilan boshlanishi haqida esga soladi.

Arxitektura inshootida kirish, vestibyl, xonalar bizga me'morchilikning butunligini ochib berganidek, kitobning barcha qismlari, muqova, farzats, bosh titul, shmutstitullari, sahifalar, xotimalar (kitob va uning bo'limlari oxiridagi bezak, lavha) bularning hammasi bir butun kitobni tashkil qiladi. Xohlagan badiiy asar narsa sifatida bizni qurshab turar ekan, shu bilan birga boy mazmunga ega butun olamni namoyon etadi. Bu olamni- kitob mazmunini ochib berish kitobning muqovasi yordamida amalga oshiriladi. U kitobning himoya vositasi sifatida unga nafaqat bezak beradi, balki unga stol ustida turishni, javonda turish imkoniyatini ham beradi.

Muqova-nashrning kitob varaqalari bilan forzatsiz biriktirilgan, qalin qog'ozdan qilingan ba'zan yupqa tiniq, polimer qatlam bilan o'ralgan qoplamasi. Badiiy muqovalangan, kitobni qo'lga olib, uning ichidagi ma'naviy mazmunini bilmasdan turiboq, bir olam zavq olishingiz mumkin. Biz his qilgan bu qandaydir badiiy "mo'jiza" bizning turmush tarzimizga hurmat bilan yondoshishga chaqiradi. Shu bilan birga o'zining ichki olamiga hurmat bilan qarashga chaqiradi.

Avvalambor muqova matnni o'rtasidan tikilgan 2tadan iborat jildni o'z ichiga oladi.

Tikilgan joyi markazi sifatida bezalgan bo'ladi, unda yozuvlar bo'ladi, jildlarda esa qoplama, charm yoki boshqa qandaydir materialdan iborat bo'ladi, yoki bezaklar tasviri tushirilgan bo'ladi. Oldin juda keng tarqalgan muqovalarni shakli shunday bo'lgan va hozirda ham uchrab turadi.

syurrealizmvakubizmplastikasigaxospoetikramzlarvash arqonamajoz, uningmifologiyasivatarixibilanbog'liq holdatalqinqilinayotgani o'zbekistonzamonaviyrangtasviridao'zslubin I namoyonetaolganHurshidZiyoxonovrangtasvirasarlari ayaqqolko'rinadivabuholatXXasravangardyo'nalishian

'analargaboyxalqsan'atibilanerkinmuloqotgakirishganiaks ettiradi. H.Ziyoxonovo'zbekmahallasidatug'ilibo'sgan. Uyurtimizningolisqishloqlarigatez-tezboribturadi. Shuninguchunxalqturmushigaxosekzotika, milliyliboslar, uy-jihozlarivaxalqamaliysan'atiuningqalbigayaqin.

Rassomningaksariyatasarlariasosiyqahramonlariqadryatlar, yoshkelinchaklar, bolalarvauyjonzotlaridir.Rassom o'z asarlarida o'zbek xalqi turmushi, madaniyati, tarixini aks ettiradi. Ushbu asarlarda u o'zbek xalqiga mehrini ifodalaydi.O'zbek xalq qo'shiqlari, xalq hayoti va maishiy turmushi, uning o'tmishi, milliy liboslar va bezaklar ijodkorning asarlari uchun mavzu va syujet beradi.HushnidZiyoxonovningichkiolamijudao'zigaxos.

Uko'rgannarsalarinio'ztafakkuribilanboyitib, nafisgeometrikshakllardaifodalashgaintiladi. Shumaqsadda Sharqodamlarimaishiyurmushi va shuo'lkatabiatinisinchkovlikbilano'rganadi. Rassomo'zichkidunyasini, g'oyavao'y-fikrlarinimajozvaramzlarvositasidagavdalantirib, yangikompozitsiyalaryaratib, mavjudvoqelikniboyitishgaintiladi.H.Ziyoxonovningasarlaridarangtasvirigaxosrang-barangobrazlilik, mahobatlilik, chuqurpsixologizm, badiiyobrazlaryaxlitligiko'zgatashlanadi. Ulardamilliylikniifodalashga, voqeliknifalsafiyaksettirishgayo'naltirilganiboisma'lumma'noda, realizmningtashqiko'rinishisifatidataassurotuyg'otadi.



X.Ziyoxonov aslida grafika bo'yicha mutaxassis.U turli nashriyotlarda kitob grafikasi bilan shug'ullangan. Ammo doim rangtasvirga qiziqani bois moybo'yoqda suratlar chizishga, rangtasvirdagi turli uslub va yo'nalishlarni o'rganishga harakat qildi. Ijodining ilk bosqichida ko'proq syurrealizmga murojaat etib, Dali va Magritta ijodini qiziqish bilan o'rgandi. Uning bu davrda ishlangan "Astral tana" (1997), "Davr ruhi" (1999), "Dard" (1999), "Karvon" (1999), "Ajrash vodiysi" (2000)asarlari shu mashhur rassomlarning ijodi ta'sirida yaratilgan.

Rassom Niderland (Dyuyzburg shahri)da birinchi shaxsiy ko'rgazmasini o'tkazib, "Amsterdam, RAI"da qatnashganidan so'ngra uning ijodiga Evropa san'ati kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning ko'z oldida kubizmning go'zalligi namoyon bo'ldi.Shu paytgacha realistik yo'nalishdagi mumtoz asarlar ta'sirida ijod qilgan rassom kutilmaganda siniq chiziqlar, burchaklar, bo'yoqlarda yangicha mazmun mavjudligini his etdi.Borliqni ham yangicha idrok eta boshladi.



1991 yildan H.Ziyoxonov ijodida “Qochish” (2000), “Uchovlon” (2001), “Jang” (2001), “Cho’milayotgan ayollar” (1999), “Qumg’on ushlagan bola” (1999), “Buxorolik ayol” (1999) kabi kubizm ruhidagi asarlar turkumi paydo bo’ldi. Shu bois ‘zBA akademigi A.Hakimov: “Kun va tun” (1999) kartinasidan H.Ziyoxonov kubizm ruhidagi turkum asarlar yarata boshladi. Bunga oddiy texnik detal – matoning buklanganligi va uni rangtasvir plastikasi tuzilishiga moslash zarurligi sabab bo’ldi. H.Ziyoxonov ijodida bunday asar u Pikasso ijodiga qiziqib yurgan paytda paydo bo’ldi” deb qayd etadi (1,s.23-27)H.Ziyoxonov asarlarining asosida o’zbek xalqi milliy merosi turadi. Uning aksariyat asarlarida Sharq madaniyati, jumladan, kubizmning ta’siri yaqqol seziladi. Masalan, “‘zbeklar” (2010), “Vorisi” (2008), “Kurash” (2010), “Yo’lak” (2009), “Dolmatin zotli it bilan sayr” (2012), “Rohatlanish” (2004), “Tor ko’cha” (2012) kabi asarlarida u o’zbeklarning milliyturmush tarzi, kundalik hayoti, madaniyati,an’alarini kubizmga xos nafis uslubdagi syujetlarda ko’rsatadi. Rassomning o’zi ham uning rangtasvirasarlari“kubistik dekorativizm”gamansubliginita’kidlaydi.

Ular birgalikda ham va har bir alohida ham qiziq. Ularning ijodini oddiy xayotini mujizaviyertakka aylantirish xususiyatini birlashtirib turadi, ular Li oilasidir.



2015 yilning 22 sentyabrida Toshkent Fotolaruyida «Sem vernisaj Li» Li oilasi nomli ko'rgazmatashkiletildi. Vernisajdats viriysan'atning kitobgrafikasi, estamp, ofort, litografiya, monoprint va boshqa uslubdagi asarlar joy olgan bo'lib ko'rgazmaga oilaning arxividan fotosuratlar ham nomoyish etildi. Ko'rgazmadako'rsatilagan namunalari bu xamiruchidan patirxolos. Ko'pyillarda vomi dabizdayuzlab tasvirlari yig'ilib qolgan. Asosiysi hamma o'zitanlaganyo'nalishda ishlaydi. Aleksandrlar falsafiy mavzularni yoqtirshadi, Tatyana atabiyat mavzusini ishlaydi, Mariya abstraktyo'nalishlarda ijod qiladideydi Galina Li. Galina Lining o'zibolalari kitob illyustratsiyasi bo'yicha mutahassis.



Galina Li– Bolalar kitobi boyicha rassom,pedagog.

Bolarmavzusiuningijodidanengasosiy o'rintutadi.Galiningfikricha,bolalaruchinchizilgansur'atlar boshqalardan sifatliroq, yaxshiroq bo'lishikerakdebxisoblaydiertakqaxramonlariustidaanchaginaizlanaganmuallifillyustratsiyalaridaifodaetibturadi, har birkitobnibe'zashdarassom o'zigaxostiltopaolgan.



Galina Li.K.Muhammadininig“ Ochil



dasturhon” ertagiga illyustrasiyalari.



Xusan


Sodiqovgrafikkarikaturachirassom.1960

yildaToshkentshahridatug'ilgan.1986

yiliToshkentTeatrassomlarinstitutinigrafik-

rassommutahassisligibo`yichatamolagan.

Shu kungacha O'zbekiston hamda Rossiyava o'ttizdan ortiq davlat ko'rgazmalarida ishtirok etgan. Bulardan Janubiy Koreya, Xitoy, Polsha, Izrail, Italiya, Turkiya, Yaponiyava O'zbekiston. Xusan Sodikov 1993 yildan buyon O'zbekiston Badiiy Akdemiyasi a'zosi. Xusan Sodiqov kitob grafikachi illyustratsiya sibo'yicha ko'pgina ishlar muallif xisoblanadi.



«O'zbek xalq ertaklari» bolalar kitobiga ishlangan illyustrasiyalar

Husan Sodiqov

II-Bob 2.2. Badiiy adabiyotga Illyustratsiya ishlashning metodikasi

Mamlakatimiz mustakillikka erishgan kundan boshlab jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan ma'naviy-ma'rifiy hayotida xam ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar natijasida o'z yo'lini to'g'ri belgilab, o'z oldiga yuksak maqsadlarni qo'ya oladigan kelajagimiz vorislari xisoblangan

malakali kadrlarni tayyorlash masalasi xar qachongidan xam dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, aynan manashu kadrlar yoshlarimizning ma'naviy va moddiy hayoti uyg'unligi shakllantirish orqali ularda yuksak ma'naviy fazilatlarni, ma'naviy-moddiy qadryatlarga xurmat, Vatanga muxabbat, milliy mafkurasi sadoqat ruxida tarbiyalash mamlakatimizdagi isloxlarni xal qilish omil ekanligi e'tirof etiladi. Buning uchun esa ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida xalqimiz azaliy urf-odatlariga, tiliga, diniga, sabr-toqatlilikka, g'oyaviy sodiqlik, ma'naviy talabchanlik, kasbiy xarakatchanlik tuyg'ularini xar bir talaba ongiga singdirish talab etiladi. Shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dastur» dagi uzluksiz ta'limni islox qilish yo'nalishlarida « Milliy mustaqillik printsiplari va xalqning boy intellekual merosi hamda umumbashariy qadryatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bug'inlarida oquvchilarning ma'naviy va axloqiy fazlatlarini rivojlantirish aloxida belgilab qo'yilgan.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy kitoblardan biri – Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” eramizdan oldingi VII asrning oxiri – VI asrning birinchi yarmida yaratilgan bo'lib, u 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan 21 kitobdan iborat bo'lgan. Hozirgacha uning 5ta kitobi saqlanib qolgan. O'zbek xalqining dunyoga mashxur san'ati turlaridan biri kitobat san'ati ekanligi uning boy tarixidan dalolat beradi. Endilikda Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarovlar tomonidan badiiy sayqal berilgan kitoblar nodir san'at asari darajasida millionlab insonlarning ma'anaviyatini boyitishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston kitobat san'ati namunalari endilikda engzamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan bosmaxonalarda nashr etilmoqda.

Grafika tasviriy san'atning eng ommalshgan turi, ayni paytda, grafika san'atining o'ziga xos murakkabliklari ham mavjud. Bir qarashda juda oddiy tuyulgan bu san'at turi aslida undagi shartliliklar tufayli murakkabdir. Unda bir rang va uning t uslari, borliqdagi voqea va hodisalar tasvirlanadi.

Grafika san'atining dastgohli grafikasi, kitob, gazeta-jurnal grafikasi, amaliy grafika va plakat kabi turlari mavjud, shular ichida insonlar hayotiga eng chuqur kirib borgani kitob grafikasi san'atidir.

Kitob grafikasi – kitoblarga badiiy bezak berish san'atidir. Kitoblar o'zining mazmuni va mohiyatiga ko'ra bezatiladi. Shu bois darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ilmiy – ommabop kitoblar, lug'atlar va ensiklopediyalar, badiiy adabiyotlarga ishlangan bezaklar bir-biridan farq qiladi. Kitob grafikasi san'atining imkoniyatlari adabiy asarlari badiiy bezashda to'la-to'kis namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek kitob grafikasi san'ati XIX asrning oxirlarida shakllana boshlagan. O'rta Osiyo bir paytlar mashhur hattotlar, naqqoshlar, musavvirlar, muqovasozlarning kitob ziynatlashda ulkan maktabi bo'lgan. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga kelib kitob ishlab chiqarish san'at sohasidan industriyaga aylanib bordi. Yevropadan avvalgi O'rta Sharq mamlakatlariga, XIX asrning 60- yillarida Turkistonga yevropacha kitob nashr qilish texnikalarining kirib kelishi, shuningdek, yevropalik kitob bezovchi rassomlarning bu yerda qo'nim topishi asrlar davomida shakllangan an'analarning inqirozga uchrashiga olib keldi. Kitoblarni texnika yordamida nashr etishni yo'lga qo'yilishi mahsulotlarning badiiy darajasi emas, balki soniga e'tibor berishni taqazo etdi. Toshkent, Xiva, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Marg'ilonda litografiya usulida kitob chiqarish uskunalarini ishga tushirilishi Turkiston va Yevropada nashr etilayotgan kitoblarni amalda bir xil bo'lishga olib keldi. Shu davrga kelib jamiyatning kitobga bo'lgan ehtiyojni to'la-to'kis qondirish uchun uni idustirlashtirish tabiiy holga aylandi. Maktab tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarni ertaklarga illyustratsiya ishlash darslarini tashkil etishda badiiy adabiyot bilan tasviriy san'atning aloqadorligiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki ular mazmun va kompozitsiya jihatidan bir mazmun, syujetni turli ifodaviy vositalar bilan tasvirlasa-da, aslida ular o'zaro uyg'un, mantiqiy aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Badiiy adabiyot va unga ishlangan illyustratsiyalarni o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ikki xil shaklda talqin qilish mumkin. Birinchi holat – rassom badiiy asarga illyustratsiya ishlash jarayonida bevosita uning muallifi – yozuvchi yoki shoir bilan ijodiy muloqotda bo‘ladi, kompozitsiyaning ayrim detallarini hamkorlikda muhokama qiladi. Bunga tarixiy misol tariqasida Alisher Navoiyning SHarqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod bilan ijodiy hamkorligini keltirish o‘rinlidir. Zero, Alisher Navoiy nafaqat ilmi va san’at ahlining xomiysi, rahnamosi, balki yuksak salohiyatli maslahatgo‘yi bo‘lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. SHuningdek, zamonaviy kitob illyustratsiyasida shoir, yozuvchi va illyustratsiya ishlovchi rassomlarning hamkorligini ko‘rish mumkin. Jumladan, yozuvchi Mirmuxsin va rassom Farid Xaybullin, bolalar shoiri Tursunboy Adashboev va rassom Uyog‘un Solihov, tarixchi olim Hamdam Sodiqov va illyustratsiyachi rassom Abduqahhor Mahkamovlarning ijodiy hamkorligi bunga yorqin misol bo‘ladi.

Ikkinchi holat – badiiy asar muallifi hayotidan keyingi davrlarda ishlangan illyustratsiyalar. Xalq ertaklarining muallifi o‘z nomi bilan yaratuvchisi xalqniki bo‘lganligi uchun ularga illyustratsiya ishlovchi rassomlar bevosita manbaning muallifi bilan muloqotda bo‘lmaydi. Bu degani adabiy manba bilan illyustratsiya yaratish jarayoni uzviy aloqadorlikda bo‘lishini inkor etishi emas. Har qanday sharoitda illyustratsiya ishlovchi rassom badiiy asar mazmunini, bizning misolimizda esa ertakka ishlangan illyustratsiyaning mazmuni bir syujetning to‘laqonli ochib berilishiga qaratiladi.

Ertaklardan tashqari, umuman kitob illyustratsiyasi borasida shu kabi misollar bisyor. Masalan, O‘zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaevning Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romaniga, javlon Umarbekovning Umar Hayyom g‘azallari, Zulfiya she‘riyati syujetlari asosida ishlangan illyustratsiyalari shular jumlasidandir.

Demak, maktab o‘quvchilarini ertaklarga illyustratsiya ishlashga o‘rgatishda adabiy manbaning mazmuni bilan uning tasviriy talqini –

illyustratsiyalarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligiga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Taraqqiyotimizning jadal bosqichini boshdan kechirayotgan mustaqil yurtning bulajak etuk kadrlari xar tomonlama mukammal shaxslar bo‘lib etishishlarida o‘z soxalari bo‘yicha mukammal bilimga ega bulmoqlari lozim.

Bitituv malakaviy ishining ob‘ekti kitob illyustratsiyasi,uning predmeti esa kitoblarga illyustratsiyalar ishlash.Kitobga ishlangan illyustratsiyalar kitob mutolaa kilayotgan o‘quvchilarga tushunarli,mazamunli etib borishida asosiy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Quyida illyustrativ rasm ishlash mavzusiga doir dars ishlanmasi berilgan.

Darsning mavzusi: Gofur Gulomning “Shum bola ”qissasi asosida illyustrativ rasm ishlash. (2 soat).

Darsning maqsadi: a) ta'limiy: o'quvchilarga illyustratsiya haqida ma'lumot berish, o'qigan ertaklari asosida tasavvurdan rasm chizishga o'rgatish, ijodiy qobiliyat va badiiy didlarini o'stirish;

b)tarbiyaviy: Bilimlar manbai bo'lgan kitobga muhabbat uyg'otish va ularni avaylab-asrashga o'rgatish;

v)rivojlantiruvchi: rasm orqali o'z fikrlarini ifodalay olish, asardagi biron holatni tasvirlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Darsning jihazlanishi: “Shum bola” qissasi rassomlar tomonidan ishlangan illyustratsiyalar. Qadimiy Toshkent ko‘chalari,so‘lim Vodiyning tasviri. Qadimgi o'zbek kiyimlarida tasvirlangan odamlar tasvirlari.Shu mavzugu ishlangan parallel sinf o'quvchilarining ishlari. Texnika vositalari va arxitektura yodgorliklari va o'zbek xalqining milliy kiyimlarini tasvirlovchi diapozitivlar.

Darsning mazmuni: Yangi mavzuni bayoniga o'tishdan avval o'qituvchi ertaklar asosida rasm chizishning xususiyatlari haqida qisqacha suhbat o'tkazadi. U quyidagicha mazmunda bo'lishi mumkin:

Ertaklarga rassomlar tomonidan turli mazmunda rasmlar ishlanadi. Bu rasmlar illyustratsiyalar deb ataladi.Bu rasmlar ertak mazmunining o'quvchiga yanada

tushunarliroq bo'lishiga yordam beradi. U ertakdagi voqea, sodir bo'lgan davr, ijobiy va salbiy obrazlar haqida to'la-to'kis tushuncha beradi. Rassomlar bunday ertaklarga rasm ishlash uchun, avvalo, uni bir necha bor o'qib chiqadilar. Bundan tashqari, voqea ro'y bergan mamlakatning tabiati, kishilar va kaxramonlarning hayoti, turmushsharoiti bilan tanishadilar. Ma'lum tayyorgarlikdan so'ng ertakdagi biron holatga rasm ishlaydilar. So'ngra o'qituvchi asosiy masalaga o'tib, bolalar e'tiborini ertak mazmuniga qaratadi va suhatni davom ettiradi.

Siz, “Shum bola ” ertagini adabiyot darsligidan o'qigan bo'lsangiz kerak. Uning mazmunini yaxshilab eslang va quyidagi savollarga javob bering:

1. Qissa qaxramonning ismi?
2. Shum bola onasidan nimani yashiradi?
3. Qoravoy Toshketni nimaga tark etadi?
 4. U kimning ko'l ostiga ishga kiradi va nma ish qiladi?
 5. Asardagi boyning ismi?
 6. Qoravoyning singlisini ismi?
 7. Qoravoy boyni aldashni nimadan boshlaydi?
 8. Aldovni nima bilan tugatadi?
 9. Boyning kichik farzandi ismi?
 10. Sariqboy ish xaqi o'rniga Shumbolaga nma beradi ?
 11. Ertakdagi salbiy obrazlar kimlar va ularni qanday tasavvur qilasiz?
12. Shumbolal bilan Boyning tashqi ko'rinishi, bo'ylari, kiyimlari, yuz tuzilishlarini qanday tasavvur qilasiz?
13. Asar xaqidangi xulosangiz?

Endi bir o'ylab ko'ring-chi, ertakning qaysi qiziqarli joylariga rasmlar ishlasa bo'ladi? Balki ertakning ushbu eriga:

O'qituvchi suhatni davom ettirib, asar qismiga ishlangan illyustratsiyaga bolalar e'tiborini qaratadi. (Illyustratsiya) So'ng bolalarga quyidagi mazmunda savollar beriladi:

- Illyustratsiyada kimlar va qanday voqea tasvirlangan?
- Voqea qanday sodir bo'lyapti? - Uni qanday bilish mumkin?
- Voqea qaysi davrda ro'y bergan?
- Uni qanday bilish mumkin?
- Rasm sizga yoqdimi? Nima uchun yoqdi?

Savol-javob tugugach, o'qituvchi undagi kamchiliklarni to'ldiradi, xatolarni tuzatadi, javoblarni umumlashtiradi.

Vazifani bolalar ongiga etkazishda parallel sinf o'quvchilarining shu ertakka ishlangan rasmlaridan namunalar ko'rsatish va ularni birgalikda tahlil qilish yaxshi natijalar beradi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga shu ertak asosida rasm chizishni topshiradi. Rasm ishlashda ko'rgazmali qurol sifatida doskaga rasm, otkritka, reproduksiyalardan namunalar ilib qo'yiladi.

Uyga vazifa: Sinf ishini yana bir ko'rib chiqish, kamchiliklarni to'ldirish, xatolarni tuzatish.

“Shum bola” nomli kissaga rasm ishlash ikkinchi darsda ham davom ettiriladi. Ikkinchi darsda o'qituvchi partalararo yurib, uy vazifasini ko'zdan kechiradi. Ulardan yaxshi, o'rtacha, yomon ishlanganlarni ajratib olib, bolalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi.

Tahlilda quyidagi savollar beriladi:

- Bu rasmlarning qaysi biri sizga yoqadi?
- Nima sababdan yoqadi? - Qaysilari yoqmadi?
- Nima sababdan yoqmadi?
- Bu rasmda qanday voqea tasvirlangan ?
- Rasmda asosiy obraz kim va u qanday ishlangan?

Yomon va o'rta ishlangan ishlar yuzasidan ham savollar berilib, ulardagi ijobiy va salbiy tomonlar ham aniqlanadi. Savol-javoblardan so'ng o'qituvchi bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, har bir o'quvchiga o'z rasmidagi kamchiliklarni yo'qotish, xatolarni tuzatish yuzasidan ko'rsatmalar beradi. Bu

ishda qiynalgan o'quvchilarga o'qituvchi yordam beradi. Bolalarning rasmlari bo'yash uchun tayyor bo'lgach, o'qituvchining rang bilan ishlashga oid qisqacha suhbatidan so'ng bolalar rasmlarini bo'yashga o'tadilar.

Suhbatda o'qituvchi rasmlarda davr, yil fasllari. Kunning vaqti, ijobiy, salbiy obrazlarning tasvirlanishi, havo perspektivasi, akvarel, guash bo'yoqlari bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiradi. Dars har galgidek bolalar rasmlaridan namunalar ajratib olish va ularni tahlil qilish bilan yakunlanadi.

Uyga vazifa: Sinf ishini bo'yab tugallash. Shuningdek, uyda har bir o'quvchi ishlagan kompozitsiyasini qalam tasvirini boshqa qog'ozga ko'chirib, rangli qog'oz parchalaridan applikatsiya usulida bajarib kelish.

Illyustratsiya (lotincha “illyustrato”- aniqlashtirmoq, ravshanlashtirmoq) – rassomning kompozitsion mushohadasi, tasviriy mahoratini to'la namoyon etish uchun imkon yaratib beruvchi badiiy-grafik elementdir. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslarida turli janrdagi adabiy asarlarga illyustratsiya ishlashga ko'proq e'tibor qaratilgan. Kitobat san'ati tarixidan shu narsa ma'lumki, bir asarga bir nechta rassom turli yillarda qayta-qayta murojaat etib, har safar o'ziga xos yangilik kiritishi mumkin. M.Servantesning “Don Kixot” asariga illyustratsiyalar ishlagan Xose del Kostilo (1780), Gustav Dore (1863), Onore Dome (1868), Xegenbart (1951), Kukriniksi (1953) va Pikasso (1955) lar badiiy echimini o'ziga xos usulda hal etganlar. Xuddi shunday holni G'.G'ulom asarlariga, o'zbek xalq ertaklariga T.Muxammedov va A. G'ulomovlar tomonidan ishlangan illyustratsiyalarda ham ko'rish mumkin. Shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Nizomiy, Dehlaviy, Navoiylarning “Xamsa” lariga, Firdavsiyning “Shohnoma”si va shu kabi qadimiy qo'lyozma asarlarga Sharq musavvirlari tomonidan ko'plab illyustratsiya- miniatyuralar ishlangan.

Muallif adabiy asarining matni yanada ifodaliroq, ta'sirchan tarzda asar xarakterini o'quvchiga etkazib berishda kitob rassomi o'z san'ati vositasi yordamida hissa qo'shadi. Kitobni bezashda rassom adabiyotning obrazli qurilishini va emotsional muhitini aks ettirishi, uning insonparvarlik

taraqqiyotining yo'nalishini ta'kidlashi lozim. Rassom buning uddasidan chiqqanda, uning mehnati natijasi jamiyat ahamiyatiga ega bo'ladi va kitobxon e'tiboriga tushadi. Turli janrdagi adabiyotlarni bezashda alohida estetik maqsadlar talab etilishi muqarrar. Hatto eng sodda, murakkab bo'lmagan bezak elementar estetik shartlarni talab etadi: matn va bezakning mutanosibliigi, xoshiya va matn joylashuvi nisbatlari va hisobga olinadi.

Amaliy ish tahlili.

Badiiy ta'lim tarixida o'quvchilarning tasviriy savodxonligi, estetik didini shakllantirishda tasviriy san'at ta'limi tarkibidagi illyustrativ rasm ishlash darslari alohida ahamiyat kasb etishi bilan ham nafaqat badiiy-estetik ta'limda, balki umuman ta'limda, ayniqsa, tarbiyada muhim o'rin tutadi. Zero, bu jarayon o'quvchilarda tasviriy savodxonlik kompetentsiyalari bilan hamohang tarzda

o'quvchilar ma'naviyatini boyitish, ularda axloqiy ideallarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Zero, "Ertaklar – yaxshilikka etaklar", degan ta'limot aynan ertaklar orqali o'quvchilarga yaxshi bilan yomonni, yovuzlik bilan ezgulik, o'g'rilik bilan egrilik va hokazo qarama-qarshiliklarning mazmuni va ma'nosini anglashga o'rgatishga yo'naltirilgan. Shuning uchun ham maktab tasviriy san'at ta'limi mazmuniga boshlang'ich sinflarda ertaklarga illyustratsiya ishlash, bu turdagi darslarning keyingi bosqichlarida esa boshqa maqom va turdagi badiiy manbalarga illyustratsiya ishlashga oid maxsus soatlar ajratilgan. Bu masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda muammo sinflar kesimida didaktikaning uzluksizlik va uzviylik printsipli asosida takomillashtirib borilib, tasviriy san'at ta'limining so'nggi bosqichi – 7-sinfning oxirgi chogi to'laligicha kitobat san'ati, illyustrativ rasm ishlashga bag'ishlanganligi ham tasviriy faoliyatning bu turi ta'lim va tarbiya jarayonining dolzarb sohalaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz mustakillikka erishdan kundan boshlab jamiyatimizning barcha soxalarida, jumladan ma'naviy-ma'rifiy xayotitda ham ulkan uzgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar natijasida o'z yo'lini to'g'ri belgilab, o'z oldiga yuksak maqsadlarni qo'ya oladigan kelajagimiz vorislari xisoblangan malakali kadrlarni tayyorlash masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Zero aynan manashu kadrlar yoshlarimizning ma'naviy va moddiy xayoti uyg'unligi shakllantirish orqali ularda yuksak ma'anaviy fazilarlarni, ma'naviy-moddiy qadryatlarga xurmat Vatanga muxabbat, milliy mafkurasi sadoqat ruxida tarbiyalash mamlakatimizdagi isloxlarni xal qilish omil ekanligi e'tirof etiladi. Buning uchun esa ta'lim tizimining barcha bug'inlarida xalqimiz azaliy urf-odatlariga, tiliga, diniga, sabr-toqatlik, g'oyaviy sodiqlik, ma'naviy talabchanlik, kasbiy xarakatchanlik tuyg'ularini har bir talaba ongiga singdirish talab etiladi.

Grafika tasviriy san'atning eng ommalshgan turi, ayni paytda, grafika san'atining o'ziga xos murakkabliklari ham mavjud. Bir qarashda juda oddiy

tuyulgan bu san'at turi aslida undagi shartliliklar tufayli murakkabdir. Unda bir rang va uning turlari, borliqdagi voqea va hodisalar tasvirlanadi.

Grafika san'atining dastgohli grafikasi, kitob, gazeta-jurnal grafikasi, amaliy grafika va plakat kabi turlari mavjud, shular ichida insonlar hayotiga eng chuqur kirib borgani kitob grafikasi san'atidir.

Kitob grafikasi – kitoblarga badiiy bezak berish san'atidir. Kitoblar o'zining mazmuni va mohiyatiga ko'ra bezatiladi. Shu bois darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ilmiy – ommabop kitoblar, lug'atlar va ensiklopediyalar, badiiy adabiyotlarga ishlangan bezaklar bir-biridan farq qiladi. Kitob grafikasi san'atining imkoniyatlari adabiy asarlari badiiy bezashda to'la-to'kis namoyon bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishni mavzusi «Ertaklarga illyustratsiyalar ishlashning shakli va usuli», birinchi va ikkinchi boblarda mazvuning nazariy qisimlarini yoritgan bulsak endilikda uning amaliy taxlila to'xtalib o'tamiz. Bitiruv malakaviy ishining amaliy qismiga G'ofur G'ulomning «Shum bola» asari tanlab olingan. Ushbu asar bo'yicha ko'plab rassomlar kitob illstratsiyalarini yaratishgan. Ilovada ular taqdim etilgan. Asarga illyustratsiya yaratishda albatta asarni o'kish va bundan avvalagi ijod namunalariga tayanagan xolda yondoshamiz. Illyustratsiyani ishlash uchun biz 40x80 razmerdagi planshetni oldik. Planshetga illyustratsiya ishlashga mos bo'lgan kog'ozni tortib unga maxsus texnika (tus va pva kley) bilan rang berdik. Fonni qora rang bilan qoplashimizni sababi illyustratsiyadagi ranglar yanada yaqqol ko'rinishi xamda no'ananaviy bo'lishi uchun. Tayyor bo'lgan fo'nga, asarga tayorlagan illyustarsiyamizni ko'chiramiz.

1. Ishning markaziy qismiga asar qaxramonini tasviri hamda orqa qismida oq chizgilar bilan qadimiy Toshkent hamda vodiyning ramziy ravishdagi ko'rinishi tasvirlangan. Ushbu illyustratsiyani kitobning muqova kismiga xam joylashtirsa bo'ladi.



2. Amaliy ishning chap qismida shum bolaning tuxum o'g'irlash saxnasi kelitirilan.



3.O'ng tomonda asaradagi sariq boy va shum bolaning suxbati jarayoni ko'rsatilgan.Shum bolaning sariq boyning oldida bosh egib turishi va boyning juda magrur, maxtanchoq ekani tasvirlangan.Bu erda rangalarga aloxida e'tibor berilgan.



Ikkinchi

bob

yuzasidan xulosalar

Dunyodagi eng qimmatbaho duru-gavharlar, oltin javohirlar moddiy boylik ramzi deb baholansa, kitob esa shu moddiy boylik va dunyo go'zalliklarini yaratuvchi insonning aql ma'shali tafakkur faoliyati, o'zining bebaho qadriyati bo'lib, katta avlod ma'naviy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'rifiy tajribalarini kelajak sari eltuvchi ma'shal sifatida ma'no javohirlarini yosh avlodga etkazaveradi. Zamonaviy o'zbek san'atidagi milliy badiiy uslub chizgilari o'zbek milliy merosiga asosiy qadriyat sifatida qarashgan ananasi davom etayotganini ko'rsatadi. O'zbek milliy badiiy uslubida o'zbek xalqi an'analari davom etayotganligi esa mifopoetik obrazlar, motivlar, syujetlarga murojaat etishda, shuningdek, ona tabiatdan ta'sirlanish, uni ilohiylashtirish, ramzlashtirish, kinoya bilan ifodalash, badiiy an'analardan variantlashtirish asosida foydalanishda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda kitob illyustratsiyasi inson ma'naviyatini boyitishga xamda uni yanada chuqurrok anglashiga ko'makchi bo'ladi.

Tavsiyalar

Insoniyat tarixining eng qadimiy va boy madaniyat sohalaridan biri bu kitobat sanʼati demakdir, shu bois hozirgi davr talablariga koʻra kitobat sanʼatining ijodkorlar tomonidan loyihalanishi yanada takomillashib bormoqda.

Bizni vazifamiz shundan iboratki men taʼlim beradigan muassasada ham kelgusida oʻz bilim va koʻnikmalarimni ishga solib tasviriy sanʼat toʻgaragini tashkil etmoqchiman. Bunda:

1. Tarixda ajdodlarimiz bizga meʼros qilib qoldirgan madaniy yodgorliklarga asoslanib yangi kitobat sanʼati loyihalarini oʻrgatib oʻquvchilarda koʻnikma va malakani oshirishni yoʻlga qoʻymoqchiman. 2. Portret janriga oid foto materiallar, reproduksiyalar.

3. Toʻgarak xonasida dastlab uzbek kitobat illyustratsiyasi nomoyondachilari sanʼatiga oid foto reproduksiyalar koʻrgazmasi.

4. Kelajakda kitobat illyustratsiyasi sanʼati sohasiga layoqati, isteʼdodi boʻlgan oʻquvchilarga qoʻshimcha ijodiy topshiriqlar berish.

Bu qilinadigan ijod burchagi bolalar koʻz oʻngida gavdalanishi koʻplab bilimlar manbaiga ega boʻlishlari uchun boshlangʻich manbaa boʻlib xizmat qiladi deb hisoblayman.

UMUMIY XULOSA

Maktab o‘quvchilarida ertaklarga illyustratsiya ishlashga oid tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda professional rassomlar tomonidan tayyorlangan (ishlangan) illyustratsiyalardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, bu turkumdagi darslarda ham tarixiy, ham zamonaviy O‘zbekiston miniatyura san’ati namunalari bilan ham tanishtirib o‘rinlidir. Zero, o‘quvchilarda ertaklarga illyustratsiya ishlash san’atini rivojlanish tarixi, unda amal qilingan tarixiy an’analar va ularning zamonaviy talqinlari, mashhur musavvirlarning tasviriy mahorat maktablari va ularning zamonaviy davomchilari, ularning ijodiy faoliyatlarining qiyosiy tahliliga asoslangan nazariy bilimlar va ulardan amamliy tasviriy faoliyatda foydalanishga oid kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarda ertaklarga illyustratsiya ishlash bo‘yicha nazariy bilim va amaliy malakalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarda kitobat san’atining muhim badiiy-grafik elementi – illyustratsiya ishlashga oid o‘quv kompetensiyalarni shakllantirishda realistik tasviriy san’at, zamonaviy kitob illyustratsiyasi bilan sharqona miniatyura san’atining o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilish borasidagi malakalarini ham shakllantirib borish lozim. Chunki Sharq miniatyura san’ati qadimiy qo‘lyozma kitoblarining tasviriy talqini sifatida mazmun va kompozitsion mukammallik, tasvirlash usullari va texnologiyalari nuqtai nazaridan boy didaktik material vazifasini o‘taydi.

O‘quvchilarda ertaklarga illyustratsiya ishlashga oid nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish malakalarini shakllantirishda ularning kitobat san’atining har bir elementini funksiyalarini, ayniqsa asosiy grafik element – illyustratsiyalarning mohiyatini yaxshi o‘zlashtirgani muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omil tasviriy san’at o‘qituvchisidan kitobning badiiy-grafik elementlari, ularning vazifalari, shakli, kompozitsiyasi, arxitektonik echimi haqida imkon qadar to‘liq ma’lumot berishi talab etiladi.

Maktab o‘quvchilarining ertaklarga illyustratsiya ishlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini sifatli va smarali kechishini ta’minlash

uchun tasviriy san'at o'qituvchisiga quyidagi quyidagi metodik tavsiyalarni berish o'rinlidir.

Birinchiidan, sinf o'quvchilarining dunyoqarashi, badiiy qiziqishlari, tasviriy-ijodiy imkoniyatlari turlicha bo'lganligi uchun ularga bir xil topshiriq berish maqsadga muvofiq emas. Bu omil ham kompozitsiya uchun manba, ham tasviriy vosita tanlashga taalluqli bo'lib, qaysidir o'quvchi akvarel bo'yoqlarida ishlashni yoqtirsa, boshqasi grafik usulda, ya'ni oq-qora shaklida ishlashga nisbatan moyillik bildiradi. O'zbekiston kitobat san'ati tarixida aynan bir manbaga bir necha rassomlar tomonidan turlicha uslub va texnikada illyustratsiya ishlanganligini kuzatishimiz mumkin. Bunga G'afur G'ulomning "Shum bola" hajviy qissasi yorqin misol bo'ladi, ya'ni unga taniqli rassom Telman Muhamedov ranli va chiziqli illyustratsiyalar ishlagan bo'lsa, Abduboqi G'ulomov boshqacha uslubda turkum illyustratsiyalar yaratgan.

Tasviriy san'at o'qituvchisini o'quvchilarni illyustrativ rasm ishlash darslarini tashkil etishiga oid tavsiyalar sirasiga yana bir muhim metodik jihat, o'quvchilar darsda o'z kompozitsiyalarini yakunlashni yagona maqsad sifatida qabul qilmasliklari lozim. Aks holda ishni dars oxirigacha yakunlashga intilish natijasida o'quvchilarning kompozitsion mushohadalari o'zining to'laqonli tasviriy talqinini topmasligi mumkin. Shuning uchun o'quvchilar o'qituvchi nazoratida kompozitsiya variantlari ustida ishlashga, o'qituvchi hamda sinfdoshlari bilan asar syujeti va unga monang illyustratsiya yaratishga ustuvor tarzda qarashlari lozim. Muhimi berilgan topshiriqni mohiyatini to'laqonli anglashdan iborat. Shundagina kompozitsiyani uy vazifasi sifatida yakunlash to'g'ri yo'nalishga ega bo'ladi. Shu ma'noda o'qituvchining o'quvchilarni sinfda bajargan ishlariga mos tarza uyga berilgan topshiriqning vazifalarini batafsil tushuntirishi muhim ahamiyat kasb etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asari 1992 yil.

78 b.

2. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T “Sharq” 1998-3
52 b.

3. A.Egamberdiev, S.Saidova, R.Rajabov “Tasviriy va me'morchilik san'ati
tarixi” “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 yil.

4. B.Boymetov. “Qalamtasvir” Toshkent “ILM-ZIYO” nashriyoti 2007 yil.

5. Mo minov Rangtasvir” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi
bosh tahririyati 2007 yil.

6. G'.A.Artiqov. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” Toshkent
“Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.

7. S.S.Bulatov “Rangshunoslik” O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati
nashriyoti Toshkent-2009 yil.

8. R. Hasanov Tasviriy san'at asoslari” G'.Gulom nomidagi nashriyot matbaa-
ijodiy uyi Toshkent-2009 yil.

9. Umarov Y. Teatr estetikasi. Toshkent. Fan. 2009 yil.

10. B.N.Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik
texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Toshkent-“Ilm-Ziyo” nashriyoti 2013..

11. I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. Toshkent 2008 yil.

12. Raxmonov Perspektiva” Toshkent “O'qituvchi” nashriyoti 2000 yil.

13. T.Qo'ziyev, E.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov “Rangtasvir” “San'at”
jumali nashriyoti Toshkent-2003 yil.

14. A.Egamberdiyev, S.Saidova, R.Rajabov “Tasviriy va me'morchilik san'ati
tarixi” “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 yil.

15. B.Boymetov. “Qalamtasvir” Toshkent “ILM-ZIYO” nashriyoti 2007 yil.

16. G'.A.Artiqov. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” Toshkent
“Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.

17. S.S.Bulatov “Rangshunoslik” O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati
nashriyoti Toshkent-2009 yil.

18. R. Hasanov “Tasviriy san’at asoslari” G’.Gulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi Toshkent-2009 yil.
19. B.N.Oripov. Tasviriy san’atni o’qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Toshkent-“Ilm-Ziyo” nashriyoti. 2013.
20. M.Mirsoliyeva, G.Ibragimova. Ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. Toshkent. 2015.

internet saxifalari


1. <http://artclassic.edu.ru/>
2. <http://artschool.agava.ru/>
3. <http://www.manus.baikal.ru/rus/es21> .nt.m
4. <http://www.rubricon.com/artp> 1.asp


Ilova

Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” qissasiga ishlagan miniatyura uslubidagi illyustratsiyalardan namunalari.



Bobur Ismoilov





Rassom Zilola Sulaymonova

Shum bola o'ртоqlari bilan



Sulton o'g'ri hamtovoqlari bilan.



Shum bolaning qaytishi.



Eshonoyim hovlisida.